

## GLOBAL SIYOSATDA MADANIYATNING O'RNI

Ergashev Ismoilbek Azim o'g'li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, "xalqaro huquq" fakulteti 1- kurs talabasi  
ergashevsm@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Samuel Xantingtonning "Svilizatsiyalar to'qnashuvi" asarida keltirilgan ma'lumotlarga tayangan holda hozirgi global siyosiy maydonda madaniyatning o'rni qanchalar muhimligi va madaniy ziddiyatlar davlatlarni o'zaro qarama-qarshilikka xatto urushga chorlashi haqida. Madaniy jihatdan qarama-qarshi bo'lgan davlatlar o'zaro ittifoqqa kirish imkoni tobora qisqarib borayotganligi va Turkiyaning Yevropa ittifoqiga qo'shila olmayotganligiga uning madaniy kelib chiqishining ta'siri.

**Kalit so'zlar:** Svilizatsiyalar to'qnashuvi, madaniyat, madaniy kelib chiqish, Yevropa Ittifoqi, madaniy qarama-qarshilik, Turkiya, gegemon davlatlar, davlatlar, islom, sovuq urush, global urush, Atatürk, Jozef Nay, dinlar, qadriyatlar.

**Annotation:** This article, based on the ideas presented in Samuel Huntington's "The Clash of Civilizations", examines the significance of culture in the contemporary global political arena and how cultural conflicts can drive states toward confrontation and even war. It also analyzes how the possibility of forming alliances between culturally opposing states is gradually decreasing, as well as the influence of Turkey's cultural background on its inability to join the European Union.

**Key words:** Clash of Civilizations, culture, cultural origin, European Union, cultural confrontation, Turkey, hegemonic states, states, Islam, Cold War, global war, China, United States, religions, values.

**Аннотация:** В данной статье, опираясь на идеи, изложенные в труде Самюэла Хантингтона «Столкновение цивилизаций», рассматривается значимость культуры в современном глобальном политическом пространстве и то, как культурные противоречия могут подталкивать государства к конфликтам и даже войнам. Также анализируется постепенное сокращение возможностей для союзов между культурно противоположными государствами и влияние культурного происхождения Турции на невозможность её вступления в Европейский союз.

**Ключевые слова:** Столкновение цивилизаций, культура, культурное происхождение, Европейский союз, культурное противостояние, Турция, гегемонистские государства, государства, ислам, холодная война, глобальная война, Китай, США, религии, ценности.



XX asr oxiri va XXI asr boshlarida xalqaro munosabatlar tizimini izohlashga qaratilgan eng bahsli nazariyalardan biri Samuel Xantington tomonidan ilgari surilgan “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” konsepsiyasidir.

Ushbu nazariyaga ko‘ra, sovuq urushdan keyingi davrda global mojarolarning asosiy manbai mafkura yoki iqtisod emas, balki madaniy-sivilizatsion tafovutlar bo‘ladi. Muallifning yozishicha endilikda jahon siyosati madaniy chiziqlar bo‘yicha yuritila boshlandi. Davlatlar endilikda madaniy kelib chiqishga ko‘ra o‘xshash davlatlar bilan o‘zaro ittifoqqa kirishga va madaniy kelib chiqishi boshqa bo‘lgan davlatlarga esa qarshi chiqishga intiladi. Sivilizatsiyalar orasida kuchlar muvozanati o‘zgarmoqda.

G‘arbning ta’siri kamaymoqda, Osiyo sivilizatsiyalari iqtisodiy, harbiy va siyosiy jihatdan kuchaymoqda; islom demografik portlashni boshdan o‘tkazmoqda va buning oqibatlari musulmon jamiyatlarini ham, ularning qo‘shnilarini ham beqarorlashtirmoqda; G‘arbga taaluqli bo‘lmagan sivilizatsiyalar umuman olganda o‘zlarining madaniyatlari qadr-qimmatini anglab yetmoqda.

G‘arbning universalist da’volari uni boshqa sivilizatsiyalar bilan, ayniqsa, islom va Xitoy sivilizatsiyalari bilan nizoga yetaklamoqda; mahalliy darajada sivilizatsiyalar orasidagi, asosan musulmonlar va musulmon bo‘lmaganlar o‘rtasidagi chegaraviy urushlar qo‘shni qardosh mamlakatlar aholisi ichida mitinglarga, nizoning yanada zo‘rayishiga olib kelmoqda, oqibatda, yetakchi yoki negiz davlatlar mazkur chegaraviy urushni oldini olishga intilmoqda. Xantingtonning fikricha: Hozirgi davrda global siyosat modernizatsiya jarayonlari ta’sirida o‘zgarib bormoqda.

Davlatlar va xalqlar endi ko‘proq o‘xshash madaniyat va qadriyatlarga qarab bir-biriga yaqinlashmoqda. Aksincha, madaniyati, dini va urf-odatlarini turli bo‘lgan mamlakatlar o‘rtasida masofa kuchaymoqda.<sup>3</sup> Bugungi siyosiy qarorlar avvalgidek mafkura yoki kuchli davlatlar manfaatlariga emas, balki madaniy va sivilizatsiyaviy omillarga asoslanmoqda. Davlatlar o‘rtasidagi chegaralar ham tobora madaniy, etnik va diniy farqlar bilan mos kelmoqda. Sovuq urush davridagi siyosiy bloklar o‘rnini madaniy hamjamiyatlar egallab, global siyosatda turli sivilizatsiyalar o‘rtasidagi farqlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

“Sovuq urush” davrida mamlakat ko‘pchilik mamlakatlar kabi qo‘shilmaslik siyosatini yuritish, yoki ba’zilar kabi o‘z tomonini o‘zgartirishi mumkin edi. Mamlakat boshliqlari o‘z mamlakatlari xavfsizlik manfaatlarini, yoki qudratli davlatlar munosabatlari orasidagi muvozanat, yoki o‘z mafkuraviy qarashlarini hisobga olgan holda qaysi tomonda bo‘lish masalasida tanlov amalga oshirishlari mumkin edi. Lekin yangidunyoda mamlakatning do‘stlari va dushmanlarini belgilash-da uning madaniy identikligi, mamlakat aholisi madaniyati hal qiluvchi o‘ringa ega bo‘ladi. Mamlakat “Sovuq urushda qaysidir tomonni tanlamasligi mumkin bo‘lgan bo‘lsa-da, u identiklikka, o‘zlikka ega bo‘lmasligi mumkin

<sup>3</sup> Huntington, S.P., 1996. *The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order*. New York: Simon & Schuster.



emasdi. Endilikda "Qaysi tomondasan?" degan savol undanda muhimroq va fundamentalroq bo'lmish "Kimsan?" savoli bilan almashdi. Bu savolga har bir davlat javob berishi kerak. O'sha javob, mamlakat madaniy identikligi mamlakatning jahon siyosatidagi o'rnini, uning do'stlari va dushmanlarini belgilamoqda. Nega madaniy o'xshashlik xalqlar orasida hamkorlik va jipslikni va madaniy tafovutlar nizo va kelishmovchiliklarni yuzaga keltiradi? Samuel Xantington fikricha: Birinchidan, har bir kishida ko'plab identiklik turlari mavjud bo'lib, ular o'zaro raqobatga kirishishi, yoki bir-birini to'ldirishi mumkin. Bularga misol sifatida qon-qarindoshlik, kasbiy, madaniy, muassasaviy, hududiy, ta'limga oid, parti-yaviy, mafkuraviy va boshqa identiklikni keltiramiz. Bir o'l chamdagi identiklik ko'rinishi ikkinchi o'lchamdagisi bilan nomutanosib bo'lishi mumkin: bunga klassik misol sifatida 1914-yilda sinfiy identiklik belgisiga ko'ra o'zlarini Xalqaro proletariat bilan, milliy identiklik belgisiga ko'ra esa nemis xalqi va Germaniya imperiyasining bir qismi sifatida ko'rgan nemis ishchilari holatidir. Zamonaviy dunyoda madaniy iden-tifikatsiya boshqa identiklik o'lchamlariga ko'ra ahamiyati jihatdan o'sib, dolzarblashib bormoqda. Yakka o'lcham darajasida kishi uchun bevosita va birlamchi identiklik eng muhim va mazmunli bo'ladi. Lekin bunda torroq doiradagi identiklik ko'rinishlari keng doiradagilari bilan ziddiyatga bormasligi ham mumkin. Masalan, harbiy zobit o'zini muassasaviy jihatdan bo'linmasining, vzvodning, batalyon yoki polkining bir qismi sifatida his qilishi mumkin. Xuddi shu kabi inson ham o'zini bir paytning o'zida qanday-dir urug', etnik guruh, millat, din va sivilizatsiya vakili sifatida bilishi mumkin. Quyi darajada madaniyatning kishi uchun muhimligi yuqori darajalarda ham muhim rol o'ynashiga sababchi bo'ladi. Byork aytganidek, "Butun guruhga nisbatan muhabbat undagi istisnolarga nafrat tufayli bekor bo'lmaydi...

O'z guruhimizga tegishli bo'lish, o'zimiz tegishli bo'lgan vzvodni sevish - bu eng muhim tamoyil, o'z xalqimizga bo'lgan muhabbatning birinchi nishonasidir".<sup>4</sup> Madaniyat muhim dunyoda vzvodlar - bu urug'lar, batalyonlar - millatlar va armiyalar - bu sivilizat-siyalardir. Butun dunyo bo'ylab xalqlar o'zlarini madaniy tafovutlarga ko'ra bir-biridan ajratishlari darajasidan shuni bilish mumkinki, insonlar uchun madaniy guruhlar orasidagi nizolar tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda; sivilizatsiyalar eng keng miqyosdagi madaniyat ko'rinishlaridir, shu tufayli ham turli sivilizatsiyalarga tegishli guruhlar orasidagi nizolar jahon siyosatida markaziy o'ringa chiqmoqda. Ikkinchidan, madaniy o'zlikni anglashning oshishi, jamiyatdagi individual darajada amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy modernizatsiya hodisasi bilan bog'liq bo'lib, unda istiqomat joyi o'zgartirilishi va begonalashuv kishilarda mazmunli identiklik ko'rinishlariga ehtiyojni yuzaga keltiradi. Jamiyat darajasida esa, G'arbiy bo'lmagan jamiyatlarning qudrati va imkoniyatlari oshishi ularning mahalliy madaniyat va o'zliklarini qayta jonlantirilishiga va targ'ib qilinishiga

<sup>4</sup> Brewer, M.B., 1999. *Ingroup Love or Outgroup Hate?* Journal of Social Issues, 55(3), pp.429-444.



sababchi bo'ladi. Uchinchidan, har qaysi darajada - shaxsiy bo'ladimi, yoki qabilaviy, irqiy yoki sivilizatsiyaviy - kishi identikligi faqatgina "begona" boshqa tomon bilan, o'zga shaxs, qabila, irq yoki sivilizatsiya bilan qiyoslanibgina ta'riflanishi mumkin. Tarixan yakka sivilizatsiya ichidagi davlatlar yoki birliklar orasidagi o'zaro aloqalar boshqa-boshqa sivilizatsiyalarga tegishli davlatlar va boshqa birliklar orasidagi aloqalardan farqlangan. "O'zimizniki" bo'lganlar va o'zimizniki bo'lmagan "yovvoyilar" bilan munosabatlarda turlicha tartib-qoidalar amal qilgan. Nasroniy olami davlatlarining o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi qoida va qonunlar nasroniylarning turklar yoki boshqa "ma'jusiylar" bilan aloqalarini tartibga soluvchi qonunlardan farq qilgan. Musulmonlar ham Dor-ul-Islom (musulmon olami) mamlakatlari bilan boshqacha, Dor-ul-Harb (notinchlik olami) mamlakatlari bilan bosh-qacha munosabatga kirishishgan. Sivilizatsiyaviy "biz" va ekstra-sivilizatsiyaviy boshqalar» insoniyat tarixining o'zgaras haqiqati bo'lib qolmoqda. Ushbu "intra" va "ekstra" sivilizatsiyaviy xulq-atvor ko'rinishlaridagi farqlar quyidagi omillar bilan bog'liq:

1. O'zgacha sifatida ko'riluvchi xalqdan ustunlik (va ba'zan aksincha, o'jizlik) tuyg'usi;
2. Shunday xalqlardan qo'rqish, yoki ularga nisbatan ishonchsizlik;
3. Til bilan bog'liq, yoki odob normalaridagi tafovutlar tufayli ular bilan muloqotga kirishishdagi qiyinchiliklar;
4. O'zga xalqlarning qarashlari, motivatsiyalari, ijtimoiy munosabatlari va amaliyotlaridan bexabarlik.

Xantingtonning ba'zi nazaryalariga Jozef Nayning tanqidiy fikrlari mavjud bo'lib bunda, Nay Xantingtonning nazariyasi dunyo siyosatini asosan madaniy va diniy to'qnashuvlar bilan izohlashini tanqid qiladi. U nazariyani "o'ta soddalashtirilgan" deb hisoblaydi, chunki davlatlar va xalqaro munosabatlar ko'plab boshqa faktorlar – iqtisodiy manfaatlar, geopolitik strategiyalar, siyosiy institutlar – bilan shakllanadi. Nay fikricha, Xantington madaniyatni har doim ziddiyatning asosiy manbai deb ko'rgan. Bu esa global hamkorlik imkoniyatlarini va madaniy o'zaro ta'sirlarni inobatga olmaydi.<sup>5</sup>

Turkiya. Turkiya davlati G'arbga yaqinlashish maqsadida modernizatsiya 1920–1930-yillarda Mustafo Kamol Atatürk Usmonli va musulmon merosidan uzoqlashib, turk milliy davlatini yaratish uchun keng ko'lamli islohotlar amalga oshirdi. U sultonni ag'darib, G'arb andozasidagi jumhuriyatni joriy qildi, xalifat va diniy institutlarni tugatdi, ta'lim va yuridik tizimini dunyoviylashtirdi, lotin alifbosini joriy qildi, kiyim va tilni modernizatsiya qildi hamda milliy, siyosiy, diniy va madaniy identitetni shakllantirdi. <sup>6</sup> G'arblashuv G'arblashuv modernizatsiya bilan yon-ma-yon ketishi, modernizatsiya uchun vosita sifatida xizmat qilishi kerak edi.

<sup>5</sup> Nye, J. S. Jr. (2004). *The Decline of America's Soft Power: Why Washington Should Worry*. Foreign Affairs, 83(3), pp.16–20.

<sup>6</sup> 210 Samuel P. Huntington, *Political Order in Changing Societies* (New Haven: Yale University Press, 1968), pp. 350-351.



1939-1945-yillardagi G'arbning Fuqarolar urushida Turkiya betaraf qolgani holda, urushdan keyin tezda mamlakat e'zini G'arbg yanada yaqinlashtira boshladi. Ochiqchasiga G'arb andozalarini qabul qilgan Turkiya bir partiyali tizimdan raqobatga asoslanuvchi partiyalar tizimiga o'tdi. Mamlakat NATOga a'zolikka intila boshladi va nihoyat, 1952-yilda bu maqsadga ham erishdi. Bu bilan o'zining Erkin Dunyo vakili ekanini tasdiqladi. Turkiya milliardlab dollar hajmida G'arb iqtisodiy va harbiy yordamini qabul qilib oldi; mamlakat harbiy kuchlari G'arb tomonidan tayyorlandi va qurollantirildi va NATO qo'mondonlik tuzilmasiga biriktirildi; mamlakatda AQSH harbiy bazalari paydo bo'ldi. Turkiya G'arb ko'z o'ngida Sovet Ittifoqining O'rtayer dengizi, Yaqin Sharq va Fors ko'r-fazi tomon siljishining oldini oluvchi Sharqiy chegara sifatida ko'рила boshlandi. G'arb bilan bunday aloqalar va bog'liqlik 1955-yilda G'arbiy bo'lmagan, qo'shilmaslik harakatiga a'zo davlatlar tomonidan o'tkazilgan Bandung Konferensiyasida turklarning qoralanishiga va islomiy mamlakatlar tomonidan kufrda ayblanishiga sababchi bo'ldi.<sup>7</sup>

Turkiya ko'p yillar davomida Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lish uchun harakat qildi. Turkiya Ittifoqqa a'zo bo'lish uchun ko'p marotaba ariza berdi ammo barcha urinishlar besamar bo'di. Yevropa Ittifoqining yetakchi davlatlari aksincha Markaziy Yevropa Ittifoqqa qo'shilishini tezlashtirishni yoqlab chiqdi.<sup>8</sup>

Nega Turkiyani esdan chiqarishdi va nega u nuqul navbatning oxirida bo'lib qolaveradi? Jamoatchilik oldida Yevropalik amaldorlar buning sababi sifatida Turkiyaning iqtisodiy rivojlanish darajasi pastligi va uning Skandinaviya mamlakatlari bilan solishtirganda inson huquqlariga hurmati darajasining ham pastligini ko'rsatishmoqda. O'zaro suhbatlarda esa yevropaliklar ham, turklar ham Turkiyaning Ittifoqqa qabul qilinmasligining asl sababi bunga yunonlarning qarshiligi va Turkiyaning musulmon mamlakati ekanini tan olishdi. Yevropa mamlakatlari 60 million musulmon yashaydigan va katta ishsizlik mavjud bo'lgan mamlakatga o'z chegaralarini ochishni istashmadi. Qolaversa, ular turklar madaniy jihatdan Yevropaga tegishli emas, deb hisoblashdi. «Turkiyaning inson huquqlari bo'yicha ko'rsatkichlari, deydi prezident O'zal 1992-yilda, shunchaki mamlakatni Yevropa Hamjamiyati-ga qo'shilmasligi uchun bahona. Asl sabab ularning nasroniy, bizning esa musulmon ekanimizda». Keyin qo'shib qo'yadi: Lekin ular bunday demaydi». Yevropa amaldorlar esa, o'z navbatida, Ittifoqning «Nasroniy klubi ekanini, Turkiya o'ta kambag'al, o'ta ko'p sonli aholiga ega, o'ta musulmon, o'ta dag'al, o'ta madaniy jihatdan o'zgacha va hokazo ekanini aytishmoqda. Bir kuzatuvchining aytishicha, «Arab bosqinchilarining G'arbiy Yevropa bo'ylab bosqinlari va Vena darvozalari ostidagi turklar haqidagi tarixiy xotiralar haligacha yevropaliklarni tahlikaga soladi. Bu qarashlar, o'z navbatida, «turklar

<sup>7</sup> Duygo Bazoglu Sezer, «Turkey's Grand Strategy Facing a Dilemma», International Spectator, 27 (Jan./Mar. 1992), 24

<sup>8</sup> Lan Lesser, Turkey and the West after the Gulf Wars, International Spectator, 27 (Jan./Mar. 1992), 33.



orasida G'arbning Yevropa ichida musulmon Turkiyasi uchun joy yo'q deb hisoblaydi, degan tasavvurning» tarqalishiga olib kelmoqda.<sup>9</sup>

Xulosa. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida xalqaro munosabatlar tizimini tushuntirishda Samuel Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" nazariyasi markaziy o'rin tutadi. Xantingtonga ko'ra, sovuq urushdan keyingi global mojarolarning asosiy manbai mafkura yoki iqtisod emas, balki madaniy va sivilizatsiyaviy farqlardir. Davlatlar endi madaniy kelib chiqishlariga mos ravishda ittifoqlar tuzadi, madaniy jihatdan boshqa bo'lgan davlatlarga esa qarshi turadi. Shu bilan birga, G'arbning ta'siri kamayib, Osiyo va musulmon sivilizatsiyalari siyosiy, iqtisodiy va demografik jihatdan kuchaymoqda. Xantington shuningdek, individual va davlat darajasida madaniy identifikatsiyaning ahamiyati ortayotganini ta'kidlaydi. Insonlar va davlatlar "o'zimizniki" va "boshqa" tushunchalari asosida o'z pozitsiyalarini aniqlaydi. Bu jarayon, xususan, sivilizatsiyalar darajasida, global siyosatda nizolar va hamkorlikni belgilaydi. Shuningdek, madaniy o'zlikni anglash modernizatsiya va global integratsiya jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, davlatlarning tashqi siyosiy tanlovlarida hal qiluvchi omilga aylanadi.

Nazariyaga tanqidiy qarashda, Jozef Nay Xantingtonni dunyo siyosatini faqat madaniy va diniy ziddiyatlar orqali tushuntirishi bilan tanqid qiladi. Nayning fikricha, iqtisodiy manfaatlar, geopolitik strategiyalar va siyosiy institutlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, Xantington nazariyasi bu faktorlarni yetarlicha hisobga olmaydi. Turkiya misoli Xantington nazariyasini amalda tasdiqlovchi misol sifatida ko'riladi. 1920–30-yillarda Otaturkning modernizatsiyasi Turkiyani G'arbga yaqinlashtirdi, ammo uning musulmon va madaniy jihatdan o'ziga xosligi tufayli Yevropa Ittifoqiga a'zoligi uzoq vaqt davomida kechikdi. Turkiya xalqaro siyosatda "kimman?" savoliga javob topish orqali o'z madaniy identiteti va do'st-dushmanlar tizimini shakllantirdi. Sovuq urushdan keyin global siyosatda madaniy va sivilizatsiyaviy faktorlar markaziy o'rin tutmoqda. Davlatlar va xalqlar o'z madaniy identitetlariga mos ravishda ittifoqlar tuzadi va nizolar yuzaga keladi. Madaniyat faqatgina konflikt manbai emas, balki hamkorlik va siyosiy strategiya uchun ham muhim vositadir. Xantington nazariyasi global siyosatni madaniyat nuqtai nazaridan izohlashga urg'u beradi, biroq Nayning tanqidiy qarashlari ko'rsatadiki, boshqa iqtisodiy va siyosiy omillar ham chetda qolmasligi kerak.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Huntington, S.P., 1996. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. New York: Simon & Schuster.

<sup>9</sup> Financial Times, 9 March 1992, p. 2; New York Times, 5 April 1992, p. E3; Tansu Ciller, «The Role of Turkey in 'the New World'», Strategic Re-view, 22 (Winter 1994), p. 9; Haberman, «Iraq's Other Front», p. 44; John Murray Brown, «Tansu Ciller and the Question of Turkish Identity», World Policy Journal, 11 (Fall 1994), 58.





[https://www.simonandschuster.com/books/The-Clash-of-Civilizations-and-the-Remaking-of-World-Order/Samuel-P-Huntington/9781451628975?utm\\_source=chatgpt.com](https://www.simonandschuster.com/books/The-Clash-of-Civilizations-and-the-Remaking-of-World-Order/Samuel-P-Huntington/9781451628975?utm_source=chatgpt.com) [1]

2. Brewer, M.B., 1999. Ingroup Love or Outgroup Hate? *Journal of Social Issues*, 55(3), pp.429–444. [https://bcsh.bard.edu/files/2019/06/Brewer-ingroup-love-or-outgroup-hate.pdf?utm\\_source=chatgpt.com](https://bcsh.bard.edu/files/2019/06/Brewer-ingroup-love-or-outgroup-hate.pdf?utm_source=chatgpt.com) [2]

3. Nye, J. S. Jr. (2004). The Decline of America's Soft Power: Why Washington Should Worry. *Foreign Affairs*, 83(3), pp.16–20. [https://www.foreignaffairs.com/articles/2004-05-01/decline-americas-soft-power?utm\\_source=chatgpt.com](https://www.foreignaffairs.com/articles/2004-05-01/decline-americas-soft-power?utm_source=chatgpt.com) [3]

4. Samuel P. Huntington, *Political Order in Changing Societies* (New Haven: Yale University Press, 1968), pp. 350–351. [https://openlibrary.org/books/OL5619051M/Political\\_order\\_in\\_changing\\_societies?utm\\_source=chatgpt.com](https://openlibrary.org/books/OL5619051M/Political_order_in_changing_societies?utm_source=chatgpt.com) [4]

5. Duygo Bazoglu Sezer, «Turkey's Grand Strategy Facing a Dilemma», *International Spectator*, 27 (Jan./Mar. 1992), 24 [https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/03932729208457959?utm\\_source=chatgpt.com](https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/03932729208457959?utm_source=chatgpt.com) [5]

6. Lan Lesser, Turkey and the West after the Gulf Wars, *International Spectator*, 27 (Jan./Mar. 1992), 33. [https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/03932729208457960?utm\\_source=chatgpt.com](https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/03932729208457960?utm_source=chatgpt.com)

7. *Financial Times*, 9 March 1992, p. 2; *New York Times*, 5 April 1992, p. E3; Tansu Ciller, «The Role of Turkey in 'the New World'», *Strategic Review*, 22 (Winter 1994), p. 9; Haberman, «Iraq's Other Front», p. 44; John Murray Brown, «Tansu Ciller and the Question of Turkish Identity», *World Policy Journal*, 11 (Fall 1994), 58.

